O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O‘RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI

«KELIShILDI»
Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi hududiy xay’at raisi
M.T.Xakimova _____
«__6__» ___03___ 2025 y.

« TASDIQLAYMAN»
Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi direktori
L.X.Musadjanova_____
«__4__» ___03___ 2025y.

Bilimlar sohasi: Sog‘liqni saqlash

TIBBIY STATISTIKA VA ZAMONAVIY KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI

(sikli bo‘yicha malaka oshirish guruhlari uchun)

O‘QUV DASTURI

(144-kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVChILAR:

L.X.Musadjanova	Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi direktori,t.f.d. professor
A.N.Gafurova	RO‘TFXMO va IM o‘qituvchisi
D.M.Jumanova	Olmazor tuman tibbiyot birlashmasi’’ oliy toifali bosh hamshirasi

TAQRIZChILAR:

Z.Z.Imamova	RO‘TFXMO va IM o‘quv ishlari bo‘yicha direktor o‘rinbosari
A.K.Nizamov	Olmazor tuman tibbiyot birlashmasi boshlig’i

O‘quv dasturi Respublika o‘rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko‘rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

«1» 03 2025.y. bayonnoma № 2/1

Pedagogik kengash raisi L.X.Musadjanova

O‘quv dasturi direktorlar kengashida ko‘rib chiqildi,muhokama qilindi,tasdiqlashga tavsiya etildi.

«5» 03 2025.y. bayonnoma № 2

1.Kirish.

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, malakasini oshirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur ishchi o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining “Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ning 2019 yil 6 maydagi “Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yana-da rivojlantirish choratadbirlar to'g'risida”gi PQ-4310-son va 2020 yil 7 apreldagi “Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish choratadbirlar to'g'risida”gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha me'yoriy hujjatlarni yana-da takomillashtirish to'g'risidagi” buyrug'i ijrosini ta'minlash doirasida yaratilgan. . O‘zbekiston Respublikasi Sogliqni saqlash vazirligining 2024 yil 28 oktabr 333-sonli “O‘rta tibiyot va farmasevtika xodimlarining malakasini oshirish va qayta tayyorlashga qo‘yiladigan Davlat talablari” ijrosini ta’minlash maqsadida ishlab chiqilgan.

Dasturda o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujjassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. “Tibbiy statistika va zamonaviy kompyuter texnologiyalari” o'quv dasturi yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 144 kredit malaka oshirishlari uchun mo'ljallangan. Dastur fanlar bloklariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar, tibbiyot sohasining ilm – fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan. Dasturda davolash profilaktika muassasalari statistika hamshiralarining malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, lozim bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim) yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

1.1. Maqsad:

Sog'liqni saqlashning birlamchi bo'g'inida faoliyat yurituvchi statistika hamshiralarini bilimlarini zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyot tamoyillariga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlar bilan ularning malakaviy xarakateristikasi ga mos holda oshirish. O'qish natijasida statistika hamshiralarining mavjud kompetensiyalarini takomillashtirish va kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni egallash.

1.2. Vazifalar:

• Umumiy malaka oshirish o'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha,

zamonaviy, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkil qilish va tibbiy davolash muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashxislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish.

• Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;

• Zamonaviy klinik protokollar va standartlar bilan tanishtirib, ular asosida ishlash ko'nikmalarini yangilash va mukammallashtirish;

• Etika va deontologiyaning zamonaviy jihatlari bilan tanishtirish;

• Aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;

• Sog'liqni saqlash tizimida boshqaruv ishini tashkil etish. Hamshiralik ishida marketing aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, aholi orasida ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishni tashkil qilishni takomillashtirish;

• Aholi salomatligini o'rganish va baholash usullari. Tibbiyot statistikasining asoslari. Tibbiy statistika tadqiqotlarini olib borish;

• Davolash profilaktika muassasalarining umumiy tavsifnomasi va faoliyatlari to'g'risida kon'yuktor hisobot tuzishdagi ko'nikmalarini yangilash;

• Ambulator poliklinika va davolash profilaktika xizmatlari muassasalarining asosiy ko'rsatkichlari borasidagi bilimlarini yangilash;

• Tibbiy statistika da zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llash. Dasturlar, hisobotlar va jadval lar tashkil etilganligining parametrik va standartlash usullari haqida bilim va ko'nikmalarini yangilash;

• Tibbiy yordam ko'rsatish choratadbirlar, hozirgi kunda qo'llanilayotgan yangi tibbiy texnologiyalar to'g'risida ma'lumot olish;

• Aholining har xil guruhlari o'rtasida kasallanish, o'lim va aholi salomatligining boshqa ko'rsatkichlari, hamda aholi turmush tarzi haqida to'g'ri ma'lumot yig'ish.

• Olingan natijalarni ishontirilganligini aniqlash.

•Aholi o’rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog’lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik chora tadbirlarini amalga oshirish orqali ko’p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o’rgatish.

• bemorlar hayotiga havf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko’rsatish bo’yicha nazariy bilim va amaliy ko’nikmalarini mukammallashtirish.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

Ishchi o'quv dasturi bo'yicha davolash profilaktika muassasalaridagi tibbiy statistika hamshiralarining malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini tasdiqlovchi hujjati bo'lgan hamshiralar uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturini o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetentsiyasi:

• Tibbiy etika va deontologiyani amalda qo'llay oladigan, notiqlik san'ati asoslarini tushungan yetuk mutaxassis bo'lishi;

• Hamshiraning huquqiy me'yorlarini, bemor huquqlari, roziligi, rad etishi, bemorlarning yoshiga nisbatan xususiyatlarini bilishi;
Tibbiyot psixologiyasi va shaxslararo muloqot ko'nikmalarini amalga oshirish;
• Tibbiy statistika hamshirasi vazifalari, burchlarini bilishi;
• Aholiga birlamchi tibbiy sanitariya yordamini tashkil etishda hujjatlarni o'rganish;
• Aholining har xil guruhlari o'rtasida kasallanish, o'lim va aholi salomatligining boshqa ko'rsatkichlari, hamda aholi turmush tarzi haqida to'g'ri ma'lumot yig'ishni bilishi lozim;
• Davolash profilaktika muassasalari va oilaviy poliklinikalarga tegishli direktiv va me'yoriy hujjatlarni. Sog'liqni saqlash tizimidagi boshqaruv tamoyillarini.
Tibbiyotda marketing tushunchasini bilishi lozim;
• Mutaxassisligi bo'yicha chuqur va yangilangan to'liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan, uzluksiz o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan mutaxassis bo'lishi lozim.

1.5.Dasturining dolzarbligi:

O’quv dasturining dolzarbligi amaliyotga asoslangan va muammolarga yo'naltirilgan yondashuv asosida amaliy tibbiy yordamning zamonaviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'quv materiallari va jarayonlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimining va mutaxassislikning o'ziga xos kasbiy ehtiyojlariga qaratilgan. Tibbiy statistika hamshiralarini malakasini oshirish aholiga hozirgi davr talablariga mos ravishda zamonaviy, malakali sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni ta'minlaydi.

O’quv dasturi O’zbekiston Respublikasi sog’liqni saqlash vazirligining 2024-yil 26-dekabr 402-sonli “ Sog’liqni saqlash tizimida yuritilayotgan idoraviy statistika hisobot shakllari asosida 2024-yillik hisobotlarni elektron tizimi orqali topshirish haqida“. O’zbekiston Respublikasi Sog’liqni Saqlash vazirining 2025-yil 19-mart 70-sonli “ Birlamchi tibbiy –sanitariya yordami muassasalarida tibbiy hisob hujjatlarini bosqichma – bosqich raqamlashtirish to’g’risidagi” buyrug’i ijrosini ta’minlash doirasida yaratilgan.

Dastur asosiy va eng yangi adabiyotlardan, chet el olimlarining tarjima qilingan adabiyotlaridan, milliy va jahon standartlari asosida tuzilgan me'yoriy hujjatlardan, shu bilan bir qatorda, tibbiy statistika yordam doirasidagi me'yoriy hujjatlar asosida tuzildi.

1.6. Dastur hajmi: 144 kredit (kuniga 6 kredit, haftada- 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

• Kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda
• On/offline, masofaviy - an'anaviy o'qish ishdan ajralgan/ajralmagan holda

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:

Mashg'ulotlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi “Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi” 160-son buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar 9:00 da boshlanib, 13:40 da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. Malaka oshirishdan so'ng: o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga “Tibbiy statistika va zamonaviy kompyuter texnologiyalari” bo'yicha umumiy malaka oshirganligi haqida Davlat talablariga namunadagi sertifikat taqdim etiladi.

2.REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim (natijalari)dan so'ng tinglovchi kompetensiyasi:

• Mutaxassisning fikrlash, tahlil va sintez qilish, jamoa bilan ishlash va uni boshqarish, intizomlilik, boshlagan ishini mantiqiy yakuniga etkazishga tayyorligini rivojlantiradi;

• Hamkasblar, hamshiralar va kichik tibbiy xodimlar, bemorlar va qarindoshlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning axloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirishga tayyorligi va amalga oshirish qobiliyati takomillashadi;

• O'z-o'zini baholash, tanqidiy tahlil qilish va to'g'ri qarorlarni qabul qilish, aholi o'rtasida tibbiy madaniyat, sog'lom turmush tarzi, kasallik rivojlanishining oldini olish borasida profilaktik sanitariya targ'ibot tadbirlarini olib borish, sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini shakllantirishda innovatsion texnologiyalarni keng tadbiq etish;

• Kasalliklarni aniqlashda qo'llaniladigan zamonaviy tibbiy tekshiruv usullarini o'zlashtirish;

• Aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish tadbirlarini yangilash;

• Aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, aholi orasida ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishni tashkil qilishni takomillashtirish;

• Tibbiyot sohasidagi yangiliklar, zamonaviy kompyuter texnologiyalari orqali statistik tadqiqotlarni o'tkazish, salomatligini qayta tiklash va yana-da mustahkamlash haqida yangi ma'lumotlarni berish.

• Aholining har xil guruhlari o'rtasida kasallanish, o'lim va aholi salomatligining boshqa ko'rsatkichlari, hamda aholi turmush tarzi haqida to'g'ri ma'lumot yig'ish;

• Aholi o'rtasida tibbiy madaniyatni oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, profilaktik choratadbirlarni amalga oshirish orqali ko'p tarqalgan kasalliklarni oldini olishga o'rgatish;

• Aholi salomatligini va baholash usullarini o'rganish;

• Aholining soni, tarkibi, tabiiy harakati (tug'ilish, o'lim, tabiiy ko'payish), jismoniy rivojlanishi va aholi o'rtasida har xil kasalliklarni tarqalganligi va ularning kechishi,

• O'rtacha umri, umumiy kasallanish va o'lim ko'rsatkichlarini yoki ayrim kasalliklar va o'lim sabablarini;

• Aholining ayrim guruhlari o'rtasida ularning turmush tarzi, tashqi muhit, ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy shart-sharoitlar bilan bog'lab o'rganish va o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslangan holda aholi salomatligini yana-da yaxshilash haqida aniq ilmiy asoslangan choratadbirlar ishlab chiqish va uni amaliyotga tadbiq etish.

• Sanitariya-epidemiologiya va davolash-profilaktika muassasalarining ishini to'g'ri tashkil etish uchun ularning faoliyatini, aholi uchun ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatning sifati va samaradorligini o'rganish;

• Tibbiyot muassasalarining turi, soni, ularda ishlovchi xodimlarning soni, shifoxonalardagi o'rinlar soni haqida ma'lumotlar yig'ish va ularni har tomonlama chuqur tahlil qilish;
• Tibbiy statistika tadqiqotlarini olib borish;
• Davolash profilaktika muassasalarining umumiy tavsifnomasi va faoliyatlari to'g'risida kon'yuktor hisobot tuzish;
• Tibbiy statistika da zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo'llash;
• Dasturlar, hisobotlar va jadval tashkil etilganligining parametrik va standartlash usullarini o'rgatish.

3.0. DASTUR MAZMUNI

3.1. "Tibbiy statistika va zamonaviy kompyuter texnologiyalari" malaka oshirish kursi o‘quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg‘ulotlari		Seminar	Attestatsiya
			Nazariy mashg‘ulot	Amaliy mashg‘ulot		
1.0	**Kasbiy rivojlantirish moduli**	**32**	**18**	**14**		
1.1	Modul: O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.	4	4	-		
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4		
1.3	Modul: Infeksion nazorat. Yangi sanitariya – epidemiologiya tartib va me’yorlari.	6	4	2		
1.4	Modul: Shaxslar o’rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat	6	4	2		
1.5	Modul: Sog’lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	10	4	6		
2.0	**Mutaxassislik fanlar moduli**	**104**	**44**	**60**		
2.1.	Modul: Jamiyat sog’liqni saqlash ishi va tibbiy statistika fani, uning maqsadi, vazifalari va ahamiyati.	6	4	2		
2.2	Modul: Aholi sog‘ligini baholash va tibbiy statistikaning tadqiqot usullari	12	6	6		
2.3	Modul: Sog‘liqni saqlash muassasalarining kon’yuktur tahlili va umumiy tavsifi	18	8	10		
2.4	Modul: Ambulator poliklinikada muassasalarining kursatkichlari va hisobot.	18	8	10		
2.5	Modul: Sog‘liqni saqlash tizimida davolash profilaktik muassasalarining roli va ko‘rsatkichlari	6	2	4		
2.6	Modul: Bolalar va ayollar sog‘ligini	18	6	12		

	muhofaza qilish: statistika va tibbiy yordam muassasalari					
2.7	Modul: Tibbiy statistikada standartlashtirilgan hisobotlar va jadvallarni yaratish usullari	12	4	8		
2.8	Modul: Tibbiy hisobotlar va hujjatlarni kompyuterlash**tirish: SSV** tizimida zamonaviy yondashuvlar	8	4	4		
2.9	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish.	6	2	4		
3.0	**Tanlov fanlar moduli**	4			4	
	Attestatsiya	4				4
	Jami:	**144**	**62**	**74**	**4**	**4**

Tibbiy statistika va zamonaviy kompyuter texnologiyalari” malaka oshirish yo‘nalishi o‘quv modullarining mazmuni

1.1.Modul. O‘zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining yaqin va istiqbolga mo‘ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag‘ishlangan yig‘ilishidagi nutqida belgilab berilgan Sog‘liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to‘liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar. Yangi O‘zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim. Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo‘nalishlarning mazmun-mohiyati.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining”Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilishga doir davlat dasturi to‘g‘risi”dagi hamda “Tibbiy va sog‘lomlashtirish turizmini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlarining ahamiyati.Sog‘liqni saqlash tizimini raqamlashtirishdagi ustuvor vazifalar. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo‘nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning 2020-yil 12-noyabrdagi “Sog‘liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 4890-sonli shuningdek 2024 yil 5-sentabrdagi “Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy etishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 311-sonli Qarorlarining mazmun-mohiyati.

Davlat tibbiy sug‘urtasi-sifatli tibbiy xizmat kafolati.Davlat tibbiy sug‘urtasi mexanizmlarini joriy qilish bilan bog‘liq islohotlar. Davlat tibbiy sug‘urtasining huquqiy asoslari, mexanizmlari va joriy etish bosqichlari haqida. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida davlat tibbiy sug‘urtasiga oid norma haqida.

1.2.Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar. Tibbiyot sohasida raqamli texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, Bemor ma'lumotlarini boshqarish, tibbiy statistik ma’lumotlarni to‘g‘ri tahlil qilish, tahlil

qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo‘llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko‘nikmalarga ega bo‘lish.
Internet tarmog‘ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma’lumotlar bazasini tashkil etish, mobil tibbiyot ilovalari va axborot xavfsizligi asoslarini, AI asosida diagnostika, chatbotlar va virtual yordamchilardan foydalanishni bilishi kerak. “Tibbiyotda raqamli texnologiyalar” o‘quv modulini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:
-tibbiyotda raqamli texnologiyalar tushunchalari va tasavvurlarining umumiyligi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o‘rni;
- hozirgi zamonda informatikaning o‘rni va roli, ma’lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish.

1.3.Modul. Infeksion nazorat.

Infeksion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyasi, kelib chiqish sabablari, profilaktikasi. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo‘llaniladigan me’yoriy hujjatlar. Davolash profilaktika muassasalarida shifoxona ichi infeksiyasini oldini olish chora tadbirlarini o’tkazishda o’rta tibbiy hodim vazifalari. Karantin va o‘ta havfli infeksiyalar haqida tushuncha. Karantin va o‘ta havfli infeksiyalar profilaktikasini amalga oshirish chora tadbirlari, himoyalanish tamoyillari. OIV/OITS haqida umumiy ma’lumot. OIV/OITS tarqalishini oldini olish choralari. Avariyali holatlar yuzaga kelganda tibbiy hodim taktikasi. Himoya kiyimlari va ulardan foydalanish tartibi.

1.4 Modul Shaxslar o’rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat

Jamiyat va bemorning salomatligi yo‘lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko‘rsatish. Bemorga diqqat e’tibor va g‘amxo‘rlik bilan munosabatda bo‘lish va o‘zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an’analarini saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e’tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko‘nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta’siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to‘g‘risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg‘ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e’tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiY. Bemorning ehtiyojlarini baholash. Shaxsiy chegaralarni hurmat qilish. Tushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko‘nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o‘zaro bog‘liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko‘nikmalarning o‘zaro bog‘liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O‘zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olish. Samarali muloqotning xususiyatlari

1.5. Modul. Sog’lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik

Sog‘lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta’siri, to‘g‘ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to‘g‘ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta’siri, tibbiy ko‘riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

2.1 Modul: Jamiyat sog’liqni saqlash ishi va tibbiy statistika fani, uning maqsadi, vazifalari va ahamiyati.

Sog‘liqni saqlash tizimi resurslari. Sog‘liqni saqlash sohasida boshqaruv tizimi haqida tushuncha. Sog‘liqni saqlash tizimida boshqaruv ishini tashkil etish. Sog‘liqni saqlash boshqarmasi. Sog‘liqni saqlash tizimi subyektlari. Tibbiyot sohasiga oid Prezident Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining Qarorlari, sog‘liqni saqlash Vazirligining buyruqlari. Davlat statistikasi borasida qabul qilingan normativ hujjatlar. Rasmiy statistikaga oid, Qonunchilik palatasi tomonidan 2021 yil 7 mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2021 yil 26 iyunda ma’qullangan hujjatning mohiyati. Tibbiyotning ijtimoiy faoliyatini aniqlash, uni jamiyatdagi o‘rnini o‘rganish, faoliyati va ichki differentsiyasini rivojlantirish yo‘llari. Sog‘liqni saqlash muassasalarining birlamchi tibbiy hujjatlari ro‘yxati bilan tanish. Sog‘liqni saqlash tizimida me’yoriy tibbiy hujjatlar, ularni to‘g‘ri yuritish va nazorat qilish. Sog‘liqni saqlash tizimida tibbiy hisobotlarni to‘g‘ri yuritishni yo‘lga qo‘yish. Tibbiyotda marketing tushunchasi.

2.2 Modul: Aholi sog’lig’ini baholash va tibbiy statistikani tadqiqot usullari.

Aholi salomatligini o‘rganish va baholash usullari. Aholi salomatligini o‘rganish. Aholining soni, tarkibi, tabiiy harakati (tug‘ilish, o‘lim, tabiiy ko‘payish), jismoniy rivojlanishi va aholi orasida turli kasalliklarning tarqalganligi va ularning kechishi, o‘rtacha umr ko‘rsatkichlarini aniqlash. Tibbiyot statistikasi asoslari.Sog‘liqni saqlashni to‘g‘ri rejalashtirish, sanitariya-epidemiologiya va davolash-profilaktika muassasalarining ishini to‘g‘ri tashkil etish uchun ularning faoliyatini, aholiga ko‘rsatilayotgan tibbiy xizmatning sifati va samaradorligini o‘rganish.Tibbiyot muassasalarining turi, soni, ularda ishlovchi xodimlarning soni, muqim shifoxonalardagi o‘rinlar soni haqida ma’lumotlar yig‘ish va ularni tahlil qilish.Tibbiy statistik tadqiqotlarni olib borish. Sanitariya-statistik tadqiqotlarni o‘tkazish.Statistik tadqiqotlarning umumiy nazariyasi.Statistik kuzatuvlarni tashkil etish, olingan statistik materiallarni guruhlash, jamlash, hisoblash qoidalari va statistik tahlil usullari.

2.3 Modul: Sog’liqni saqlash muassasalarining konyuktur tahlili va umumiy tavsifi.

Davolash-profilaktika muassasalarining umumiy tavsifnomasi va faoliyatlari to‘g‘risida kon’yunktor hisobot tuzish.Aholining soni va tarkibi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni to‘plash, aholining ro‘yxatga olinishi, ko‘rsatkichlarni hisoblab chiqarishda Statistika boshqarmasining rasmiy ma’lumotlaridan foydalanish. Aholining kasallanish ko‘rsatkichlarini aniqlash.Demografik ko‘rsatkichlarga asoslanib,jadval tuzish.Aholi soni, yoshi, tarkibi, tug‘ilish, umumiy o‘lim, bolalar

o‘limi,onalar o‘limi,tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlarini hisoblash.Umumiy kasallanish. Kasallanganlik.Birlamchi kasallanish.Kasalliklarni tarkibi bo‘yicha kasallanish ko‘rsatkichlarini ma’lumotlarga asoslanib aniqlash va hisoblash.Antropometrik ko‘rsatkichlar.Bo‘y, og‘irlik, ko‘krak qafasi aylanasiga oid ko‘rsatkichlarga asoslanib jismoniy rivojlanishni aniqlash.Birlamchi va ikkilamchi nogironlik. Umumiy nogironlik. Bolalikdan nogironlik.5 yoshdan 16 yoshgacha bo‘lgan bolalar orasida nogironlik ko‘rsatkichlarini hisoblash.Aholi orasida demografik tahlillarni yuritish.

2.4.Modul: Ambulator poliklinikada muassasalarining ko‘rsatkichlari va xisobot.

Ambulator poliklinika xizmatini tashkil etishda sog‘lom aholi va bemorlarni profilaktik va maqsadli tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish, dispanser nazorati bo‘yicha ishlar xajmini ko‘rsatkichlar orqali xisoblash. Ambulator poliklinika xizmatining asosiy ko‘rsatkichlarini formulalar asosida hisoblash. Profilaktik ishlarning ko‘rsatkichlarini hisoblash. Poliklinikadagi barcha vrachlar va o‘rta tibbiyot xodimlarini qatnovlar va mustaqil qabul ko‘rsatkichlari haqida ma’lumot to‘plash. Ambulator poliklinika faoliyatini aniqlash. Poliknika OSH va tor mutaxassislarini faoliyatiga baho berish. Surunkali va birlamchi kasalliklarni aniqlash. Statistik talonalarni o‘z vaqtida yuritilish monitoringini olib borish.

2.5.Modul : Sog‘liqni saqlash tizimida davolash profilaktik muassalarining roli va ko‘rsatkichlari.

Davolash profilaktika muassasalari faoliyatining ko‘rsatkichlari.Davolash profilaktika muassasalarining tibbiy hujjatlari va ularning yuritilishi. Statsionar faoliyatining ko‘rsatkichlari, o‘rinlarning o‘tkazish qobiliyatidan foydalanish. O‘rinlar bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichlarini xisoblash. Davolash muassasalarining o‘rtacha o‘rin quvvati monitoringini olib borish. Statsionarlardagi yuritiladigan tibbiy hujjatlarni xisoblash. Statsionarlar ishini hisobga oluvchi asosiy hujjat shakllarini yuritish va xisobotlari.

2.6.Modul: Bolalar va ayollar sog‘lig‘ini muxofaza qilish: statistika va tibbiy yordam muassasalari.

Bolalar va ayollar salomatligini statistik ko‘rsatkichlari orqali o‘rganish. Bolalar va onalar muassasalari statistik ko‘rsatkichlari. Bolalar va onalar muassasalari statistik ko‘rsatkichlarini hisoblash. Bolalar va onalarga tibbiy yordam ko‘satuvchi muassasalarini hisobga olish xujjatlarini, bolalar va onalarga tibbiy yordam ko‘rsatish statistik ko‘rsatkichlar. Salomatlik ko‘rsatkich indeksi. Bolalarga uyda xizmat ko‘rsatish ko‘rsatkichlarini hisoblash. Bolalar kasalxonalari va oilaviy poliklinikalarda bolalarni hisobga olish xujjatlari. Asosiy xujjat shakllari. Qishloq joylardagi tug‘ruqxonalarda sog‘lomlashtirish punktlarida, oilaviy poliklinikalarda ishlovchi o‘rta tibbiy xodimga qatnaganlikni hisobga olish varaqasi, uchastka tibbiy brigada (patronaj) hamshirasi (akusherkasi) ni bemorlarni uylariga qatnab ishlaganligini hisobga olish daftari. Bolalar kasalxonasini hisbotini tuzish. Asosiy ko‘rsatkichlarni taxlil qilish.Tug‘uruqxona va ayollarga tibbiy yordam ko‘rsatuvchi tibbiy muassasalarning barcha hisobga olish va hisobot xujjatlari. O‘quv xujjatlari bo‘yicha hisobotning asosiy bo‘limlarini tuzish faoliyatining asosiy ko‘rsatkichlari. Bolalarni salomatlik darajasi. Ayollarda reproduktiv salomatligini aniqlash.Akusher

va ginekolog shifokorlarini xisobotlaridan to‘g‘ri foydalanish.

2.7.Modul: Tibbiy statistikada standartlashtirilgan hisobotlar va jadvallarni yaratish usullari.

Tibbiy statistikada zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo‘llash. Dasturlar, hisobotlar va jadvallar tashkil etilganligining parametrik va standartlash usuli.Tibbiy statistikada hisobotlar tayyorlash, jadvallar tuzishda zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo‘llanilishi. Statistik tadqiqotlar natijalarining aniqligini baholashning parametrik usullari va zamonaviy kompyuter texnologiyalarini qo‘llash. Standrtlash usullarini tayyorlash. Hodisalar va belgilar orasidagi bog‘lanishlarni baholash-korrelyatsiyasi. Aloqadorlik – korellyatsiyaning funksional va korellyatsion usullarini va ular bo‘yicha korellyatsiya darajasini aniqlash. Statistik dasturlarni zamonaviy elektron ko‘rinshga keltirish. Davlat statistika qo‘mitasi tomonidan berilgan dasturlardan tug‘ri va oqilona foydalanish. Bir qism tanlab olingan hodisalarni o‘rganish orqali, tadqiqot natijasida olingan ko‘rsatkichlarni aniqligiga baho berish. Statistik tadqiqot natijasida olingan nisbiy va o‘rtacha qiymatlarni aniqlik darajasini belgilash. Intesiv ko‘rsatkichlarni hisoblash. Standartlash jadvallarini tuzish

2.8.Modul: Tibbiy xisobotlar va xujjatlarni kompyuterlashtirish: SSV tizimida zamonaviy yondashuvlar

Sog‘liqni saqlash tizimidagi tibbiyot muassasalarining ish faoliyati hisobotlarni shakllantirish.Aholining tabbiy harakati, ayrim xodisalarni vaqt mobaynida o‘zgarishini tahlil qilish uchun dinamik qatorlardan, diagrammalardan foydalanib xisobotlarni shakllantirish. Aholini tabiiy harakatini, tibbiyot muassasalarini ish faoliyatini tahlil qilish. Dinamik qatorlarni to‘g‘ri tuzish. Grafik tasvirning qo‘llanilishi. Diagrammalarni turlari va ularni qo‘llanilishi. Dinamik qatorlarni to‘g‘ri tuzish, guruhlararo o‘rtacha arifmetik qiymatlarni aniqlash.Dinamik qatorlarni tekislash usullari va ulardan foydalanish. Grafik tasvirlarni tayyorlash. Diagramma, kartogramma, kartodiagramma yaratish. Kompyuterlash tizimi va elektron xisobotlarni tayyorlash.Elektron xisobotlarni to‘g‘ri yuritish.

2.9.Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko‘rsatish.

Favqulodda vaziyatlar haqida asosiy tushuncha.Favqulodda vaziyatlar,ularning sabablari, turlali.Tibbiy saralash va triaj asoslari.Shoshilinch tibbiy yordam ko’rsatish bosqichlari va qoidalari. Ommaviy talofatlar holatida evakuatsiya
va birinchi yordam ko‘rsatish tamoyillari.Qon ketishni to‘xtatish usullari.Yengil va og‘ir kuyishlarda tibbiy yordam ko‘rsatish.Elektr jarohatlari, ochiq va yopiq jarohatlar, sinishlar,uzoq muddat ezilishda shoshilinch tibbiy yordam ko‘rsatish.Hushdan ketish, kollaps, shok, koma haqida umumiy ma’lumot. Hushdan ketish, kollaps holatlarida bemorga yordam ko‘rsatish.Shok holatlarida yordam ko’rsatish algoritmi (gipovolemik, anafilaktik, travmatik). Komatoz holatda bemorni baholash va dastlabki yordam ko’rsatish. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o‘pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun’iy nafas berishni o’tkazish algoritmi.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-PEDAGOGIK TA’MINOTI

4.1.O‘quv bazalari: Respublika o‘rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi. Shifokorlar ko‘chasi 2, 14-uy Davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o‘quv bazalari.

4.2. Mashgulotlarni o‘tkazish uchun zarur jixozlar ro’yxati:

Modul buyicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o‘tiladigan o‘quv auditoriyalari.Multimediali jamlanma: elektron doska,slaydlar to‘plami bo‘lgan rrt ko‘rinishli ma’ruzalar ,SD diskda ko‘rgazma materiallar, videofilmlar.Klinik amaliy ko‘nikmalarni mustaxkamlash trening o‘kuv xonasi mulyaj, fantom v.b jihozlar.Mavzular bo‘yicha turli jadvallar, tasviriy ko‘rgazma va qo‘llanmalar,

4.3. Tavsiya etiladigan adabiyotlar

4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-xukuqiy hujjatlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari.

2.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash Vazirligining buyruq va meyoriy hujjatlari**.**

4.3.2. Adabiyotlar:

1.A.R.Sodiqov A.M.Mirzaahmedov. Maktabgacha ta’lim muassasalarida ovqatlantirishni tashkil etish va meyoriy hujjatlarning yuritilishi. Toshkent-2017.”Ilm ziyo” nashriyoti.

2. SH.T.Iskandarov “Axoli orasida demografik jarayon va kasallanishni o‘rganish usullari” Toshkent 2019

3. N.M.Soatov Statistika. Toshkent – 2019

4. SH.T.Iskandarov “Tibbiyot statistikasi” Toshkent 2018

5. L.M.Xaitova. S.Y.Ro‘ziyeva Fertil yoshdagi ayollarni homiladorlik davrida, tug‘ish jarayonida va tug‘ruqdan keyingi davrdagi kuzatuvda akusherlarning vazifalari. Termiz-2017. O‘quv-uslubiy qo‘llanma.

6. A.I.Ikromov D.I.Ahmedova Barkamol avlodni shakllantirishda jismoniy tarbiya va sportning tibbiy asoslari.Toshket-2018 “O‘zbekiston” nashriyoti. Uslubiy qo‘llanma.

4.3.3. Elektron ta’lim resurslari

http://www.edu.uz
http://www.pedagog.uz
www.tma.uz,
www.lex.uzhttps://ru.pinterest.com/vkhamidov/

5.YAKUNIY ATTESTATSIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O‘zR SSVning 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyrug‘i 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baxolash to‘g‘risidagi Nizom» ga asosan o‘tkaziladi.